

ALALIYA NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALAR IMPRESSIV NUTQNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Mamatova Aziza Bo'riboyevna

Nizomiy nomidagi O'zMPU Logopediya kafedrası pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)., dotsent

Toshpo'latova Sabinabonu Suvonboy qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Logopediya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Email:suvonovnasabina@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada alaliya nutq nuqsonili bolalar ichki ya'ni impressiv nutqni uning o'ziga xos xususiyatlari hamda shakllantirish texnologiyalari haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

Аннотация: *в данной статье раскрываются сведения об особенностях внутренней, то есть импрессивной речи у детей с нарушениями речи (алалией), а также о технологиях её формирования.*

Annotation: *this article presents scientific information on the peculiar features of internal, that is, impressive speech in children with alalia speech disorder, as well as the technologies for its formation.*

Tayanch so'zlar va tushunchalar: *alaliya, organik jarohatlanish, miya qobig'i, impressiv nutq.*

Hozirgi davrda bolalarda nutq rivojlanishiga oid muammolar logopediyada dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shulardan biri - alaliya bo'lib, "alaliya" atamasi (grekcha a-yo'q, lalio-nutq) bu asosan markaziy nerv tizimidagi organik jarohatlanish natijasida bola nutqining to'liq yoki qisman rivojlanmasligi bilan ifodalanadi. Alaliyaning asosiy turlariga ko'ra klassik tasnifi mavjud: sensor alaliya –tushunish yetishmovchiligi yani impressiv nutq asosi bilan bog'liq; motor alaliya –ifodaviy nutq muammosi yani artikulyatsion apparatlar harakati bilan bog'liq; sensomotor (aralash) alaliya – tushunish va harakat faoliyati bilan bog'liq. Shu bois, ushbu maqolada asosan sensor alaliyali bolalarda impressiv nutqni shakllantirishning samarali usullari va psixologik – pedagogik yondashuvlari dolzarb korreksion-pedagogik masala bo'lib hisoblanadi.

Bolalarda nutqning to'liq shakllanmasligi ularning tafakkuri, xotirasi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir qiladi. Ayniqsa, sensor alaliya nutq nuqsoni bo'lgan bolalar atrofdagi so'zlarni to'g'ri idrok eta olmaydi bu esa so'z boyligi yetarli darajada emasligi, balki impressiv ya'ni tushunuvchi nutqning shakllanishini ortda qolishi bilan bog'liq bo'ladi. Sensor alaliyali bolalarni avvalo, eshitish xususiyatlarini tekshirish kerak chunki, eshitish muammosi ham nutqning rivojlanishini kechiktiradi. Sensor alaliyali bolalarning korreksion ishlarining asosiy maqsadi ham bolada eshitish qobiliyatini rivojlantirish va dastlab nutqiy oqimni tahlil qilish bilan bog'liq

bo'ladi. Sensor alaliyali bolalar bilan ishlash jarayonida bolani tinchlantirish va unga keladigan tartibsiz shovqinni to'xtatish kerak bo'ladi. Buning uchun pedagog bolani ko'rish maydoniga kirishi va uni nutqsiz faoliyat, ya'ni rasm chizish, bo'yash, plastilinda modellashtirish, kublardan qurish yasash, mozaika va boshqalar bilan band qilishi kerak bo'ladi, bolaga mana shunday nutqsiz ko'rsatmalarga bo'ysunish o'rgatilgandan so'ng undagi tartibsiz va nomuvofiq nutqini sekinlashtirish kerak bo'ladi. Asta –sekin bolada tartibsiz nutq sekinlashib boshqalarning nutqiga etibor qaratish boshlanadi. Lekin bola bilan ishlash jarayonida eshitish qobiliyatini rivojlantirish va tovushlarni farqlash uchun qarama –qarshi nutqsiz tovushlar eshittiriladi. Mana shu jarayonda ovozli o'yinchoqlardan foydalanish juda ham o'rinli bo'ladi. Ovozli o'yinchoqlarga baraban, qo'ng'iroq va hushtakni misol qilib olib va bulardan mashg'ulot jarayonida ham unumli foydalanish mumkin. Bu tovushli o'yinchoqlarning ovozigacha bola taqlid qiladi. Ushbu jarayonda bolaning vizual idrokdan tashqari, uning eshituv idroki ham rivojlanadi, chunki bu o'yinchoqlar chiqargan tovushni joyini (old, orqa, yon) aniqlashi kerak bo'ladi. Bunday mashg'ulotlar bolaning eshitish organini zo'rliqtirmaslik uchun qisqa bo'lishi kerak. Keyinchalik nutq tovushlariga yaqin bo'lgan hayvonlar ovozigacha taqlid tovushlar masalan r-r-r-itning irrilashi, mu-u-u –sigirning ovozi kabi tovushlar eshittiriladi. Bu tovushlar avval eshittiriladi, keyin esa bola oyna oldida o'zi talaffuz qiladi. Bu jarayon bolaning e'tiborini tovushlarni ifodalashning o'ziga xos xususiyatlariga jalb qiladi, bu esa ularning idrok etish darajasini sezilarli darajada osonlashtiradi. Bu bosqichlar bolada amalga oshirilgandan so'ng nutqni tushunishni rivojlantirishga o'tiladi, bunda eng oddiy kundalik ko'rsatmalar (eshikni yop, kitobni ol, derazni och) bular dastlab yuz ifodalari va imo- ishoralar birga o'rgatiladi. Keyinchalik esa yuz ifodalari va imo- ishoralar butunlay chiqarib tashlanadi va bola faqat nutqni tushunishga asoslangan ko'nikmalarni bajaradi. Ushbu jarayonda bolalarning lug'at boyligi shakllanib boradi, keyinchalik bola lug'atini yanada boyitish uchun bir xil iboralarni turli xil o'zgarishlarda qayta-qayta takrorlash orqali erishiladi, natijada bolagacha nutqiy ko'rsatmalarga nisbatan ko'nikma hosil bo'ladi.

Bolaning nutqni to'g'ri tushunishi doimiy ravishda rasmlar yoki haqiqiy ob'ektlarni ko'rsatish orqali tekshiriladi. Masalan, rasmda quyonga sabzi beradigan qiz tasvirlangan. Bolaning har bir so'zni to'g'ri tushunishi va so'zlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash uchun ushbu rasmdan unga quyidagi savollar berilishi mumkin: "quyonni kim boqadi?" (bola qizga ishora qiladi); "qiz kimni boqadi?" (quyonga ishora qiladi); "qiz quyonni nima bilan boqadi?" (sabzi ko'rsatadi).

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, sensor alaliyali bolalarda impressiv nutqni shakllantirish jarayonida avvalo eshitish idrokini rivojlantirish, tovushlarni farqlash va ularni ma'noli nutqiy birliklar bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, oddiy kundalik ko'rsatmalar orqali nutqni tushunishni o'rgatish, imo-ishora va mimik ifodalarni bosqichma-bosqich nutqiy topshiriqlar bilan almashtirish bolaning impressiv

nutqini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Umuman olganda, sensor alaliyali bolalarda impressiv nutqni shakllantirish jarayonida eshituv va nutqiy idrokni rivojlantirish, ko'rgazmali vositalardan foydalanish hamda o'yin asosidagi mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlaydi. Shu bois, logopedik amaliyotda ushbu usullarni qo'llash bolalarda nutqni tushunish, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va ijtimoiy moslashuvni yengillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Ayupova M.Y. Korreksion ishlar metodikasi ma'ruza matni. T.: 2001.
2. Ayupova M.Y. LogopediY. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
3. Volkova G.A. Logopedicheskaya ritmika. – M.: 2003.
4. Gvozdev.A.N. Voprosi izucheniya detskoy rechi.–M.:Pedagogika,1991.
5. Govorysha.rus